


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60910200 – Davolash ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining
malaka talablari*

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent tibbiyot akademiyasi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «07» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60910200-Davolash ishi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3.	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarining kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60910200-Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yilgan talablar.....	9
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2.	<i>60910200 - Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	9
2.3.3	<i>60910200 - Davolash ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	9
	Biblografik ma'lumotlar.....	12
	Kelishuv varag'i.....	13

1. 60910200 - Davolash ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 6 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60910200 – Davolash ishi ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanishi. Malaka talabi **60910200- Davolash ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlovchi barcha tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim) boshliqlari, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari:

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60910200 - Davolash ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va sog'liqni saqlash sohaslariga tegishli yo'nalish bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, tibbiy nufuzini oshirish, o'tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yuqumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va

davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalarni yechishni o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, islohatlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli qaror va farmonlar, buyruqlar, chora – tadbirlar, dasturlar, standartlar, innovatsion g'oya va loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar, tezislar, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalari, simulatsion ta'lim texnologiyalari, simulatrabotlar va fantomlar, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– innovatsion va ilmiy-tadqiqot jarayoni.

1.2.3. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashxislash va davolash;
- reabilitatsiya va dispanser nazorati;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion.

1.2.4. 60910200-Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60910200-Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida tibbiyot sohasiga oid modullarni (fanlarni) o'qitishi hamda quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (tuman markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalar, oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlari) bo'lim mudirlari, bosh vrachlari yordamchilari, tuman va shahar markaziy shifoxonalari bosh vrachlarining birinchi o'rinbosalarining yordamchilari;

- Shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi hamda ularning hududiy filiallari bosh vrach o'rinbosarlari yordamchilari;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- sog'liqni saqlashda birlamchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiyon loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish; qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- sog'liqni saqlash sohasining barcha bo'g'inlari subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

2. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- keng dunyoqarashga, zamonaviy hamda tizimli bilimlarga ega bo'lishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.
- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim;
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- kasbiy faoliyatida axloqiy va deontologik tamoyillarni amalga oshirishni bilish;
- tibbiy xujjatlarni yuritish qoidalarini bilish;
- kasbiy muammolarni hal etish uchun inson organizmidagi morfofunktsional, fiziologik holatlarni va patologik jarayonlarni baholashni bilish;

– tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asbob-uskunalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– bolalar va katta yoshdagi bemorlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda, shu jumladan sog‘lom turmush tarzini shakllanirishda, kasalliklar paydo bo‘lishi va (yoki) tarqalishining oldini olishda, ularni erta tashxislashga, sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, shuningdek atrof-muhit omillarining bolalar va kattalar sog‘lig‘iga zararli ta‘sirini bartaraf etishga tayyor bo‘lish;

– profilaktik tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, sog‘lom bolalar va kattalar surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni dispanser kuzatuvidan o‘tkazishga tayyor bo‘lish;

– epidemiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish, radiatsiya holati yomolashgan, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda, o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar markazlarida aholini himoya qilishni tashkil etish;

– bolalar va kattalar salomatligi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va tibbiy-statistik tahlil qilish uchun ijtimoiy va gigiyenik usullardan foydalanish;

– holatni aniqlash yoki kasallikning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidagi ma‘lumotlarni, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik va boshqa tadqiqotlarni yig‘ish va tahlil qilish;

– bemorlarda Xalqaro statistik tasnifi (43-Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasi tomonidan qabul qilingan, X- qayta ko‘rish, Jeneva, 1989) va tegishli sog‘liq muammolariga muvofiq asosiy patologik holatlarni, kasallik belgilarini, sindromlarini, nozologik shakllarini aniqlash;

– vaqtincha mehnatga layoqatsizlik tekshiruvini o‘tkazishda, tibbiy-ijtimoiy ekspertizani o‘tkazishda ishtirok etish, odamning biologik o‘limini aniqlash;

– turli nozologik shakllari bo‘lgan bemorlarni boshqarish taktikasini aniqlash;

– ambulatoriya sharoitida va kunduzgi statsionarda turli nozologik shakllari bo‘lgan bemorlarni boshqarish va davolash;

– to‘satdan o‘tkir kasalliklarga chalingan, bemorning hayotiga tahdid bilan birga kelmaydigan va shoshilinch tibbiy yordam talab etmaydigan surunkali kasalliklarning kuchaygan holatlarida birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish;

– shoshilinch tibbiy aralashuvni talab qiladigan sharoitda bo‘lgan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda ishtirok etish;

– fiziologik homiladorlikni tug‘ruq jarayonini o‘tkazish;

– favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatishda, shu jumladan tibbiy evakuatsiya qilishda ishtirok etish;

– tibbiy rehabilitatsiya va sanitor-kurort davolanishga muhtoj bemorlarda tabiiy davolovchi omillar, dori-darmon, dorivor bo‘lmagan terapiya va boshqa usullardan foydalanish zarurligini aniqlash;

– bolalar va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga), kattalarga sog‘liqni saqlashning asosiy gigiyenik tadbirlarini, sog‘liqni saqlash va mustahkamlashga,

kasallikning oldini olishga hissa qo'shadigan asosiy fiziologik ko'rsatkichlarni o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish;

–asosiy tibbiy–statistik ko'rsatkichlardan foydalangan holda bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini baholashda ishtirok etish;

– tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish va ommaviy dalillarga asoslangan tibbiyotga asoslangan ravishda namoyish etish;

–Ilmiy-tadqiqotlarda ishtirok etish;

–fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan yangi usul va uslublarni amalga oshirishda ishtirok etish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi, o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlar, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: oilaviy shifokor.

2.3.2. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	9150 (9450)*	305 (315)*
Tanlov fanlar	720 (420)*	24 (14)*
Malakaviy amaliyot	810	27
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

*Harbiy tibbiy tayyorgarlik fani o'tilmaydigan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun

2.3.3. 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi*:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	9240	308	
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1104	Falsafa	120	4	2
1.03	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.04	O'RTTXX11-208	O'zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.06	TK1106	Tibbiy kimyo	180	6	1
1.07	TBF1204	Tibbiy va biologik fizika	120	4	2
1.08	LT1204	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	2
1.09	TAT1204	Tibbiyotda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.10	AN11-312	Odami anatomiyasi	360	12	1,2,3
1.11	GS12-308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	240	8	2,3
1.12	BK13-408	Biokimyo	240	8	3,4
1.13	FZ13-408	Normal fiziologiya	240	8	3,4
1.14	MB13-408	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	240	8	3,4
1.15	PS1304	Psixologiya	120	4	3
1.16	KAN1504	Klinik anatomiya (operativ jarroxlilik va topografik anatomiya)	120	4	5
1.17	PAN15-606	Patologik anatomiya	180	6	5,6
1.18	PFZ15-606	Patologik fiziologiya	180	6	5,6
1.19	FR15-606	Farmakologiya	180	6	5,6
1.20	GXGTE1406	Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya	180	6	4
1.21	JSMM1606	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment	180	6	6
1.22	TKK1104	Tibbiyot kasbiga kirish	120	4	1
1.23	IKP15-608	Ichki kasalliklar propedevtikasi	240	8	5,6
1.24	IK17-910	Ichki kasalliklar.	300	10	7,8,9
1.25	DV1704	Dermatovenerologiya	120	4	7
1.26	STVFHAS1704	Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari	120	4	7
1.27	FT1704	Ftiziatriya	120	4	7
1.28	TR1706	Tibbiy radiologiya	180	6	7

1.29	EN1804	Endokrinologiya	120	4	7
1.30	KF1504	Klinik farmakologiya	120	4	10
1.31	NTG11006	Nevrologiya. Tibbiy genetika	180	6	10
1.32	ON1904	Onkologiya	120	4	9
1.33	PNTPS11006	Psixiatriya, narkologiya. Tibbiy psixologiya	180	6	10
	YuKBYuK EPXE18-1010	Yukumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epide- miologiya, XE	300	10	8,9,10
1.36	GXDT11104	Gematologiya, HDT	120	4	11
1.37	KALIM11104	Klinik allergologiya, immunologiya	120	4	11
1.38	SO'Q11104	Simulatsion o'qitish	120	4	11
1.39	AG18-906	Akusherlik va ginekologiya	180	6	8,9
1.40	BKP15-606	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	180	6	5,6
1.41	PD17906	Pediatriya	180	6	7,9
1.42	UX15-606	Umumiy xirurgiya	180	6	5,6
1.43	XK18908	Xirurgik kasalliklar	240	8	8,9
1.44	TROXDJNX18905	Travmatologiya va ortopedi- ya, HDJ. Neyroxirurgiya	150	5	8,9
1.45	UR1704	Urologiya	120	4	7
1.46	ANR11004	Anesteziologiya va reanimatologiya	120	4	10
1.47	OTST11006	Otorinolaringologiya va stomatologiya	180	6	10
1.48	OF1904	Oftalmologiya	120	4	9
1.49	OShTKK19-1010	Oilaviy shifokorlikda tera- piya. Kasb kasalliklari	300	10	11,12
1.50	OshPN19-1007	Oilaviy shifokorlikda pediatriya. Neonatologiya	210	7	11,12
1.51	OShXBX19-1006	Oilaviy shifokorlikda xirurgi- ya. Bolalar xirurgiyasi	180	6	11,12
1.52	OshAG19-1006	Oilaviy shifokorlikda akusherlik va ginekologiya	180	6	11,12
1.53	RB11004	Reabilitologiya	120	4	12
1.54	TTYo11005	Tez tibbiy yordam	150	5	12
2.00	TF2	Tanlov fanlar	720	24	
2.00		<i>Tanlov fanlar (7 ta fan)</i>	720	24	3,4,5, 6,7,8,12
JAMI			9870	329	
		Malakaviy amaliyot	810	27	1,2,3, 4,5,6, 8,9, 10,11
	BAKYDA604	Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	12
JAMI			930	31	
HAMMASI			10800	360	

* Harbiy tibbiy tayyorgarlik fani o‘tiladigan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun

2.3.3. 60910200 - Davolash ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	9240	308	
1.01	O‘YT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1104	Falsafa	120	4	2
1.03	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.04	O‘RTTXX11-208	O‘zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	AN11-312	Odam anatomiya	360	12	1,2,3
1.06	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.07	TK1106	Tibbiy kimyo	180	6	2
1.08	LT1204	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	1
1.09	TBF.TAT1106	Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.10	PS1304	Psixologiya.	120	4	3
1.11	GS12-308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	210	7	2,3
1.12	FZ13-408	Normal fiziologiya	210	7	2,3
1.13	BK13-408	Biokimyo	240	8	3,4
1.14	MB13-408	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	180	6	3,4
1.15	KAN1504	Klinik anatomiya(OXTA)	120	4	4,5
1.16	PAN15-606	Patologik anatomiya	180	6	4,5
1.17	PFZ15-606	Patologik fiziologiya	210	7	4,5
1.18	FR15-606	Farmakologiya	180	6	4,5
1.19	GXGTE1406	Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya	120	4	5
1.20	JSMM1606	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment.	150	5	7
1.21	TKK1104	Tibbiyot kasbiga kirish	120	4	2
1.22	IKP15-608	Ichki kasalliklar propedevtikasi	240	8	4,5
1.23	IKKKXDT16-1012	Ichki kasalliklar. Kasb kasalliklari.XDT	660	22	6,7,8,9,10
1.24	KALIM11104	Klinik allergologiya, immunologiya	120	4	10
1.25	BKP15-606	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	180	6	4,5
1.26	PD17906	Pediatriya	360	12	6,8,9,10

1.27	NShP11204	Neonatologiya.Shoshilinch pediatriya	120	4	12
1.28	TR1706	Tibbiy radiologiya	180	6	6,7
1.29	DV1704	Dermatovenerologiya	180	6	6,7
1.30	EN1804	Endokrinologiya	150	5	8
1.31	FT1704	Ftiziatriya	120	4	10
1.32	NTG11006	Nevrologiya. Tibbiy genetika	240	8	6,9,10
1.33	PNTP161006	Psixiatriya, narkologiya. Tibbiy Psixologiya	180	6	6,10
1.34	STVFNHAS1704	Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari	120	4	7
1.35	YKBYKE1791010	Yukumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya.	300	10	7,9,10
1.36	KF1504	Klinik farmakologiya	120	4	11
1.37	UX15-606	Umumiy xirurgiya	180	6	5,6
1.38	XK18908	Xirurgik kasalliklar.	240	8	8,10
1.39	BX1704	Bolalar xirurgiyasi	120	4	7
1.40	AG18-906	Akusherlik va ginekologiya.	240	8	9,12
1.41	TON18-1106	Travmatologiya va ortopediya. Neyroxirurgiya,	180	6	8,10
1.42	OTST11006	Otorinolingologiya, Stomatologiyasi	240	8	8,11
1.43	OF1904	Oftalmologiya	120	4	8
1.44	ANR11004	Anesteziologiya va reanimatologiya	120	4	9
1.45	OG161106	Onkologiya, Gematologiya.	180	6	6,11
1.46	TTYo11005	Tez tibbiy yordam	120	4	11
1.47	RST11204	Reabilitologiya, sport tibbiyoti.	120	4	12
1.48	OshAG19-1006	Oilaviy shifokorlik akusherlik va ginekologiya	120	4	12
1.49	OSHX11104	Oilaviy shifokorlik xirurgiya	120	4	11
1.50	OSHX11104	Oilaviy shifokorlik terapiya	240	8	11,12
1.51	OSHP1111208	Oilaviy shifokorlik pediatriya	180	6	11,12
2.00	TF2	Tanlov fanlar	420	14	
2.00		<i>Tanlov fanlar (7 ta fan)</i>	420	14	3,5,6,11,12
JAMI			9870	329	
		Malakaviy amaliyot	810	27	1,2,3,4,5,6,8,9,10,11
	BAKYDA604	Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	12
JAMI			930	31	
HAMMASI			10800	360	

**Harbiy tibbiy tayyorgarlik fani o'tilmaydigan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavrning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, tibbiy bilim, tibbiy yo'nalishlar, sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, davolash usullari, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, gistologiya, rentgenologiya, profilaktika, terapiya.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar este'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi,
"Sog'liqni saqlash" ta'lim sohasi bo'yicha
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,

Rektor A.K. Shadmanov
2023-yil "01" 08
M.O.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor Sh. Yakubov
2023-yil "02" 08
M.O.



Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari
rektorlar rayosati raisi

Rektor B.T. Daminov
2023-yil «03» 08



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni
saqlash vazirligi
Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi

Boshliq O'.S. Ismailov
2023-yil "04" 08
M.O.



Toshkent shahar sog'liqni saqlash
bosh boshqarmasi

Boshliq A.V. Alimov
2023-yil "05" 08
M.O.



**Toshkent tibbiyot akademiyasi 60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi
bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy
ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“24” 07 2023-yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar – Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.K.Shadmanov, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori B.T.Daminov, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i O'.S.Ismailov, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i A.V.Alimov birgalikda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60910200 - Davolash ishi ta'lim yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalar va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim siaftini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarorlari hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy xijjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malak talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent pediatriya tibbiyot
instituti rektori**

**Sog'liqni saqlash vazirligi
Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i**

**Toshkent shahar Sog'liqni saqlash
bosh boshqarmasi boshlig'i**

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

B.T.Daminov

O'.S.Ismailov

A.V.Alimov

A.K.Shadmanov

